



## BADIIY ASARLAR TAHLILIGA YANGICHA YONDASHUV

*Hasanov Sh. A.*

*Andijon davlat pedagogika instituti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Tayanch soʻzlar:** tafakkur, fikrlash, analitik tafakkur, mustaqil fikrlash, tafakkurni shakllantirish, tadqiq, tahlil, sintez, shaxs kamoloti.

**Ключевые слова:** мышление, рассуждение, аналитическое мышление, самостоятельное мышление, формирование мышления, исследование, анализ, синтез, развитие личности.

**Key words:** thinking, reasoning, analytical thinking, independent thinking, formation of thinking, research, analysis, synthesis, personality development.

Badiiy asarni tahlil qila bilish oliy filologik ta'limning asosini tashkil etishi kerak. Mustaqil fikrlash yo'li bilan idrok etilib, anglanmagan va tekshirilmagan badiiy asar ma'naviy ozuqa bermaydi. Talabalarga adabiy-nazariy bilim berishning o'zi yetarli emas. Ularda ijodkorlik shakllantirilishi kerak. Adabiyot muallimi bir umr ijod mahsullari bilan ish ko'radi. Chinakam ijod mahsullari esa hamisha sirli, "kosa tagidagi nimkosasi" bilan qadrlidir. Ana shu nimkosalarni anglamoq va anglatmoq uchun filologlarda analitik tafakkur shakllangan bo'lishi lozim. Badiiy asarga analitik yondashuv talabning badiiy tahlilga bo'lgan qiziqishini orttiradi, tadqiqot ishlariga ilhomlantiradi, unda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantiradi. Tahliliy fikrlash talabning badiiy asar o'qishga bo'lgan qiziqishini orttiradi, adabiy asarda aks etgan voqeelikka ongli yondashuvni shakllantiradi, unda har bir asar yuzasidan fikr aytish, munosabat bildirish istagini paydo qiladi. Bu jarayonning samaradorligi professor-o'qituvchining fikrlash salohiyati darajasiga, uning talabalarni analitik tafakkur yuritishga unday bilishiga bog'liq bo'ladi.

Badiiy asarlarni uqib o'qishga o'rgatish maktab adabiy ta'limidan boshlanadi. Oliy adabiy ta'limda esa talabalarning kitobxonlik madaniyati ilmiy-pedagogik asosda yanada yuksaltirilib, professionalizm darajasiga ko'tarilishi kerak. Analitik fikrlaydigan talaba badiiy asarni qanday o'qib, qanday tushunishnigina emas,



balki adabiy matn bilan amalga oshiriladigan barcha intellektual-estetik amallarni bajarish yo'llarini ham egallagan bo'ladi. O'zining kelajakdagi pedagogik yoki tadqiqotchilik faoliyatida o'quvchilari yoki retseptlarini badiiy adabiyot olamiga olib kirib, ularga badiiy asarlardan ma'rifiy quvvat olish, ma'naviy tarbiya topish, estetik oziqlanish yo'llarini o'rgata biladi. Shunga erishgan filolog ta'lim va tarbiyasini olgan o'quvchi hamda talabaning mustaqil fikrlashi tez rivojlanadi, tanqidiy tafakkur yuritish layoqati mustahkamlanadi, badiiy so'zni his qiladigan, o'qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan, undan hayotiy xulosalar chiqarishga qodir bilimli shaxsga aylanadi.

Yunon faylasufi Demokrit: "Bilishning ikki ko'rinishi mavjud. Ularning biri – tuyg'ular vositasida bilish, ikkinchisi tafakkur ila bilishdir" [4;71-b.], – deb ta'kidlaydi. Adabiy ta'lim o'quvchi va talabalarning bilish darajasini ham tuyg'ular, ham tafakkur vositasida yuksaltirishga xizmat qiladi. Alisher Navoiyning "Xamsa", Cho'lponning "Go'zal", "Buzilgan o'lka", Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda", Erkin Vohidovning "O'zbekim", Abdulla Oripovning "O'zbekiston", Halima Xudoyberdievaning "Begim sizni tabiat", Muhammad Yusufning "Vatanim" kabi nazmiy asarlarini; Qodiriyning "O'tkan kunlar", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Shukur Xolmirzaevning "O'zbeklar", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" kabi juda ko'p asarlari talabalarning tafakkur va tuyg'ulariga birvarakayiga ta'sir ko'rsatadi.

Haqiqiy badiiy asar kitobxonni tuyg'ulantirish, hislarini harakatga keltirish orqali bilimni oshiradi. Tuyg'ulanish, bilimlanish tafakkur qilishga turtki bo'ladi. To'liq idrok etilmagan badiiy asar na tuyg'uga va na tafakkurga ta'sir qiladi.

Analitik tafakkur jarayonida badiiy so'zning ma'no qirralari kengroq idrok etiladi. E.Vohidovning "O'zbekim" qasidasidagi birgina "Ko'hna tarix shodasida Bitta marjon, o'zbekim" misrasini analitik yondashuv asosida tahlil qilish kishidan bir dunyo bilim va tuyg'ular qo'zg'alishini talab qiladi. Shu misradagi "tarix shodasi" ifodasi analitik tahlil qilinganda yer yuzida insoniyat paydo bo'lganidan boshlab to shu kunga qadar bosib o'tilgan murakkab tarixiy yo'l, voqelar, shaxslar, urushlar, taraqqiyot, tanazzul idrok etiladi. Misradagi "marjon" ifodasi "o'zbekim"ning insoniyat sivilizatsiyasining uzviy bir bo'lagi bo'lib, tutgan o'rni qadimiy va yuksak ekanidan, jahon madaniyatini rivojlantirgan ilg'or xalqlardan bo'lganidan xabar beradi. Bunday analitik xulosalar o'quvchining bilim darajasini oshiribgina qolmay, tuyg'ularini harakatga keltirib, qalbiga iftixor tuyg'usini soladi.

Ma'lumki, talaba tafakkurining shakllanishi – o'qituvchining tafakkur salohiyatiga, uning tafakkur darajasi esa talabalikda o'zlashtirgan bilimlariga bog'liq. Fikriy qoloqlikning o'qituvchi – o'quvchi – talaba; talaba – o'qituvchi



– o‘quvchi; o‘quvchi – talaba – o‘qituvchi tarzidagi halqasi uzilmay davom etib kelmoqda. Bizningcha, bu muammoning yechimini oliy ta’limdan, bo‘lgusi pedagoglarning o‘zida analitik tafakkurni takomillashtirishdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, filologik ta’lim yo‘nalishlarida talabalarning analitik tafakkur qobiliyatini shakllantirish quyidagi natijatlarga erishish imkonini beradi:

- talabaning kasbiy kompetentligi shakllanadi. analitik tafakkur layoqati bor talaba adabiyot o‘qitishning tub mohiyatini idrok qiladi: badiiy adabiyotning komil shaxs tarbiyasida tutgan o‘rnini ko‘ra biladi, o‘z faoliyatini, badiiy adabiyot insonni kamolga yetkazishning ma’naviy-ma’rifiy vositasi ekanini anglab tashkil etadi;
- analitik fikrlaydigan talaba imtixon va sinovlardan o‘tish, stipendiyadan qolib ketmaslik uchun emas, balki ilmiy-nazariy bilimlarni mustahkam egallash, kerakli amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishga ongli tarzda kirishadi. Har bir ishning oqibati qanday bo‘lishini tafakkur bilan bashorat qiladi. Mustaqil faoliyatga shunchaki diplomli kadr bo‘lib emas, malakali mutaxassis sifatida qadam qo‘yadi;
- analitik tafakkur qobiliyatiga ega talaba atrof-olamda sodir bo‘layotgan voqea-hodislarni sinchkov kuzatadi, har qanday oqibatning sababini qidiradi, dalillarni qiyoslay biladi, muhimni nomuhimdan ajrata oladi. Shu sabab hodisalarni xolis va to‘g‘ri baholay oladi. Undagi bu sifatlar mustaqil faoliyati davomida o‘zgalarga o‘tadi, fikriy qaramlikdan asraydi;
- analitik tafakkur talabada boshqaruvchilik, tashkilotchilik layoqatini hosil qiladi. Olim Yu.V. Kurnosovning yozishicha, “Analitika har qanday liderning qo‘lida kuchli intellektual quroldir” [5; 5-b.]. Lider shaxs atrofida bilim olishga, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishga o‘rgatadi. Analitik tafakkur qiladigan talaba ilg‘or fikrlari bilan boshqalarni ortidan ergashtira biladi;
- analitik fikrlovchi filolog faoliyati davomida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar va nizolarni tez va to‘g‘ri hal etadi. Analitik tafakkur vositasida boshqariladigan jamoada sog‘lom muhit barqaror bo‘ladi;
- analitik tafakkur yuritadigan filologning badiiy asarni tahlil qila olish kompetensiyasi yuksak bo‘ladi. U bilan amalga oshirilgan tahlil ilmiy to‘yinganligi, hayotiy asoslangani bilan ajralib turadi. Analitik tafakkurni egallagan o‘qituvchidagi ijobiy sifatlar o‘quvchilarga ko‘chadi va adabiyot o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadning amalga oshuvini ta’minlaydi.

Analitik tafakkur badiiy asar tahlilini chuqurlashtirib, uning ahamiyatini teranroq anglash va to‘g‘ri baholashga imkon berganiday, badiiy adabiyot ham kishida analitik tafakkur shakllantirishga xizmat qiladi. Analitik tafakkur yordamida kishi badiiy asarga yaqinroq keladi, teranroq tushunadi, badiiy



soʻzning qudrati va nafasat quvvatini chuqurroq anglaydi. Shu sabab adabiy taʼlim samaradorligini oshirish davr talabiga javob beradigan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, badiiy asarlarni analitik oʻqish talabani, umuman kitobxonni, har jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi. Analitik oʻqish jarayonida talabalarning kommunikativ layoqatini takomillashtirish imkoniyati ortadi. Talaba badiiy asarni, undagi qahramonlar tasvirini shunchaki oʻqib qoʻya qolmaydi, balki nutqiy vaziyatni, suhbat mavzusini, nutq jarayonida qoʻllanilayotgan soʻz va jumalarning holatini analitik tafakkur vositasida tahlil qiladi. Natijada talabaning soʻz ishlatishga doir nazariy bilimlari, amaliy koʻnikmalari ortadi, soʻz tanlash va qoʻllashda suhbatdoshning ruhiy holatini hisobga olishni oʻrganadi. Bu fikrlarimizni Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanidan olingan parchani analitik oʻqish va tahlillash orqali isbotlash mumkin boʻladi:

Anchagina soʻzsiz oʻlturgʻandan soʻng hoji muloyimona soʻz ochdi.

– Oʻgʻlim, hali san eshitdingmi, yoʻqmi, haytovur, biz saning ustingdan bir ish qilib qoʻydiq... Otabek maʼlumki, ularning «qilib qoʻygan yoki qilmoqchi boʻlgʻan ishlarini», albatta, bilar edi. Shundoq ham boʻlsa bilmaganga solindi:

– Aqllik kishilarning oʻgʻullari ustidan qilgʻan ishlari, albatta, nomaʼqul boʻlmas, — dedi. Hoji oʻgʻlining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi [1; 158-b.]

Asardan olingan parcha videoproektor orqali taxtaga tushiriladi. Talabalar analitik fikr yuritish natijasida parcha qatiga yashiringan quyidagi haqiqatlarni kashf etadilar:

- matndan chiqariladigan ilk xulosa – parchada ota va oʻgʻilning oʻzaro suhbatini aks etgan (matnning dialogik shaklda ekani, adresat va adresantning nutqi ifodalangani fikrimiz asosidir);
- ota va oʻgʻil suhbatdoshlar sermulohaza, serfahm, teran fikr egalari: ular har bir soʻzni aytishdan avval obdon oʻylab, koʻngilda pishitib, aql tarozisiga solib, soʻng ifoda qilishga odatlanganlar (suhbat jarayonining ancha vaqt soʻzsiz oʻtirishdan soʻng boshlanishi, gaplarning mazmundorligi, fikriy kengligi, pishiqligi fikrimizni quvvatlaydi);
- ota va oʻgʻil suhbatdoshlar hayo, ibo, andisha, farosat kabi insoniy fazilatlarining egalari (suhbat jarayoniga taraddud koʻrilishi, vazminlik bilan gap ochish, suhbat jarayonida bir-birlarini ehtiyotlashga urinish kabi holatlar bunga dalil);
- ota – dinu diyonatli, imon-eʼtiqodli, lafzi shirin, qalbi pokiza inson (hoji otaning muloyimona soʻz boshlashi uning pokiza siyratidan dalolat beradi). U suhbat odobini, suhbatdoshining feʼl-atvorini, ruhiy holatini

mukammal bilguvchi zakiy insondir (suhbatdagi ifoda yo‘sini, murojaat shakli, so‘zlarni tanlashi fikrlarimizga asos beradi);

– Otabek donishmand otaning tarbiyasini olgan, barkamol, xushxulq, odobli farzanddir (suhbat jarayonidagi tavoze, o‘zini tuta bilish, topqirlik Otabek suvratining yorqin chizgilaridir);

– Otabek ota-onasining uni qayta uylantirish rejalaridan norozi, ammo u o‘z noroziligini muloyim gap-so‘z qatiga yashira oluvchi nuktafahm yigit (hojining o‘g‘li bergan javobdan yerga qarab, nima deyishini bilmay qolishi Otabek siyratidagi ezgu sifatlarni ko‘rsatadi).

Analitik tafakkur har qanday insonda tanqidiy va tahliliy fikrlash fazilatini kuchaytiradi. Amerikalik yozuvchi Den Xarmonning: “Hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun tanqidiy va analitik tafakkurni o‘rganish kerak” [6],– deganida jon bor. Oliy adabiy ta‘lim tizimidagi talabalarda tanqidiy va tahliliy fikrlash sifatlarini shakllantirish kelajakda ularning minglab o‘quvchilarda ana shunday xususiyatlarning qaror topishiga asos bo‘ladi.

Albatta, hamma bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, tafakkuriy sifatlar ma‘lum bir maqsadga eltuvchi samarali metod va usullar vositasida tez va oson o‘zlashtiriladi. Filolog talabaning sohasiga doir nazariy bilimlar bilan bir qatorda ularni samarali qo‘llashga imkon beradigan fundamental metodik bilimlarga, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi g‘oyat zarurdir. “Metodika” pedagogik atama sifatida juda ko‘p ta‘limiy vazifalarni qamrab oladi. Prof. Q. Yo‘ldoshev: “Adabiyot metodikasi adabiyot o‘qitishni tashkil etishga doir nima uchun, nimani va qanday so‘roqlariga javob beradigan, oz intellektual kuch va pedagogik resurs sarflagan holda, kattaroq o‘quv natijalariga erishish yo‘llari tadqiq etiladigan fandir” [65; 3-b.],–deb ta‘rif berish mumkinligini aytadi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Kumushbibi tomonidan Otabekka berilgan “Siz o‘shami?” [1;158-b.] so‘rog‘i ustida analitik tafakkur yuritish orqali quyidagi mantiqiy fikrlar yuzaga keladi:

– Kumushbibi – pokiza tuyg‘ular egasi. U “noma‘lum yigitni” uchratgunga visol lazzatini ham, hijron azobini ham totib ko‘rmagan;

– Kumushbibi – hayoli qiz. O‘zining pokiza tuyg‘ularini ovoz chiqarib aytishga iymnadi. Undagi bu go‘zal odob ota-ona tarbiyasining hosilasi;

– Kumush – islomiy tarbiya topgan qiz. U ota-ona rizoligini Tangri rizoligi, deb biladi. Ularning istak-xohishlarini rad etish Kumushbibi tabiatiga yot;

– Kumushbibi – muhabbat va baxtga loyiq qiz. Uning “kutilmagan baxt”i tasodif emas, balki ezgu fazilatlar uchun berilgan taqdir mukofoti.

– “Siz – o‘shami?” – ma‘suma qiz qalbiga “ishq” deb atalgan pokiza tuyg‘uni olib kirgan, sevgining nimaligini anglatgan nido;



– “Siz – o‘shami?” – menga bir ko‘rinib, so‘ng yashiringan: kunlar halovatim, tunlar uyqumdan ayirib, xayollarimni o‘ziga band qilib qo‘ygan kishi degan iddao;

– “Siz – o‘shami?” – qalbimda shirin orzular uyg‘otgan yigit?

– “Siz – o‘shami?” – menga hijronning dardini, visolning qadrini bildirgan suyukli;

– “Siz – o‘shami?” – sevib o‘qiydiganim Fuzuliyning dardli satrlaridagi oshiqu beqaror yigit;

– “Siz – o‘shami?” – mening kutilmagan baxtim...

“Siz – o‘shami?” savoli ustida analitik tafakkur talabalarning quyidagicha xulosalarga kelishiga turtki berishi mumkin:

– hozir sevgi bobida ham qizlarning tashabbusni o‘z qo‘liga olayotgani yaxshi emas. Ohori to‘kilgan muhabbatning qadri bo‘lmaydi;

– inson o‘z fikr-tuyg‘ularini qanday izhor qilishni bilishi lozim: topib gapirish kishining odobidan darak beradi;

– o‘zbek qizlari hayo va ibosi bilan ajralib turishi kerak. Hayosizlik va andishasizlik nomussizlikdir;

– nozik his-tuyg‘ular qallda sir saqlanadi, ular fosh bo‘lsa odam uyatga qoladi. His-tuyg‘ularni asray bilmagan odam go‘zallikdan yiroq bo‘ladi. Go‘zallikdan yiroq odamning his-tuyg‘ulari dag‘allashadi;

– milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni avaylab asrash kerak. Milliy qadriyatlarini unutgan, urf-odatlarini mensimagan odam manqurtdir.

Shuningdek, “Siz o‘shami?” so‘rog‘idagi “siz” va “o‘shami?” so‘zlarini lingvistik, semiotik yo‘nalishda ham idrok qilish mumkin:

– “siz” – kishilik olmoshi, II shaxs ko‘plik shaklda. Tilimizda “siz” so‘zi – hurmatni, yaqinlikni, mehribonchilikni ifodalashga ham xizmat qiladi; “O‘sha” so‘zlovchi va tinglovchiga ma‘lum bo‘lgan shaxs yoki predmetni eslash, yodga olish, ishora etish ma‘nolarida qo‘llaniladigan ko‘rsatish olmoshi. “-mi” esa so‘roq yuklamasi, “o‘sha” so‘ziga qo‘shilib, so‘roq, hayrat va ikkilanish mazmunini ifodalaydi.

Analitik tafakkur, umuman, har qanday axborot, xususan, badiiy asar tahliliga tamomila o‘zgacha ko‘rinish bag‘ishlaydi. Bu jarayonda talaba erkin fikrlaydi, o‘z bilimlarini faollashtiradi, tahlil ob‘ektiga aloqador fikriy kashfiyotlar qiladi, o‘zida tadqiqot ishlariga rag‘bat sezadi. Talaba badiiy asardan fikrini harakatga keltirib, ma‘rifatlanishi, ma‘naviy yuksalishi, tuyg‘ulanishi zarur. Analitik tafakkur asosiga qurilgan mashg‘ulotlar xoh u nazariy, xoh amaliy yoki seminar shaklida bo‘lsin, avvalo, qiziqarli ekani bilan talabani o‘ziga jalb etadi. Analitik tafakkur asosida tashkil etilgan darslarda talaba faol ijrochiga aylanib, bilim

olishga kirishadi. Kuchli motivatsiya talabani bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga undaydi.

“Badiiy tahlil asoslari” kitobida yozilishicha: “Eng zo‘r tadqiqotchi ham asl ijod namunasini to‘liq, barcha zamonlar va insonlar uchun o‘zgacha talqinga o‘rin qoldirmaydigan tarzda tahlil qilolmaydi. ...Turli davrlarda idrok etilgan ayni matn turlicha qabul qilinib, turfa talqinini topaverishi tabiiy holdir. Demak, badiiy matnning tahlili hech qachon to‘liq tugallikka ega bo‘lmaydi” [3; 81-b.]. Bu fikrlardan ayon bo‘ladiki, avval tahlil qilingan badiiy asarga o‘rganib bo‘lingan asar tarzida munosabatda bo‘lish o‘zini oqlamaydi. Aksincha, har gal badiiy asar tahlil qilinganda uning yangi, ochilmagan qirralarini kashf etish mumkin bo‘ladi.

Analitik tafakkur badiiy asarning avval qilingan tahlil vaqtida ochilmay qolgan, e‘tibor qaratilmagan jihatlarini “ochish”, “kashf etish” imkoniyatining kengligi bilan ham xarakterlanadi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romani qahramonlaridan biri Homid obrazi yuzasidan, bir qaraganda, hamma tahliliy fikrlar aytilgandek tuyuladi. Tahlilga analitik yondashuv Homid obrazi haqida quyidagi mantiqiy fikr va xulosalarni yuzaga keltirishi mumkin:

- Homid – go‘zallik shaydosi. U Kumushbibining husnu malohatda, odobu axloqda yagonaligini bilgach, unga ega chiqmoqchi bo‘ladi;
- Homid – “hirs” tutquni. Kumushbibi Otabekning qalbida ishq, Homidda esa, “hirs”uyg‘otgan;
- Homid – shariat qonunlariga bo‘ysunuvchi mo‘min. Birovning nikohidagi ayolga og‘iz solmaydi, Kumushbibini Otabekdan ajratib olmaguncha, unga da‘vo qilmaydi;
- Homid – xudbin odam. U shariatni o‘z nafsigga qurol qiladi: shar‘iy deb, qo‘shxotin tutishga urinadi;
- Homid – boy odam. U boylik orttirish, qashshoqlikni yengish yo‘llarini biladi;
- Homid – nopok kimsa. Uni halol mehnat bilan ro‘zg‘or tebratadi, deb bo‘lmaydi. Boyligini “chaqimchilik” kabi jirkanch ishlarga sarf etadi, birovlariga choh qaziydi;
- Homid – o‘z yo‘lidan qaytmaydigan qat‘iyatli odam. U o‘z niyatiga yetish uchun xatarli ishlardan qo‘rqmaydi, dadil harakat qiladi;
- Homid – jirkanch qotil. U o‘z niyatiga yetishda halol-haromni farqlamaydi;
- Homid – muqarrar jazoga loyiq odam. Homidning gumashtalari bilan birgalikdagi halokati sababi aniqdir: ular o‘z maqsadiga erishishda nopoklik, yovuzlik yo‘lidan borishdi. Chaqimchilik, aldov, tuhmat, hasad, qotillik kabi illatlar ularni o‘z domiga oldi, halokatga mahkum etdi;
- bir kishi qilgan gunoh ishdan uning yaqinlari, hatto butun xalq aziyat chekishi mumkin. Hamma gap maqsadga erishish yo‘lini tanlashda;



– odam o‘zining butun xatti-harakatlariga javob beradi: ezgu ishlarining mukofotini oladi, qabih ishlarining jazosini tortadi.

Ma’lum bo‘ladiki, analitik tafakkur yuritish orqali badiiy obraz sajiyasidagi fazilat va qusurlar xolis taftish qilinib, asosli fikr va xulosalar chiqariladi. Q.Yo‘ldoshev: “Badiiy asar tahlil qilinayotganda tarbiyalanuvchilarning tafakkuri va hissiyoti faol ishlashga majbur bo‘ladi. Fikriy va hissiy zo‘riqish o‘quvchilarni ma’lum mantiqiy va estetik umumlashma xulosalarga olib keladi. Bu umumlashma fikrlar badiiy asardagi voqealar ta’sirida tug‘ilgan jo‘ngina xulosalar emas, balki tarbiyalanuvchi mantiqiy-emotsional faoliyatining muayyan yakunlari tarzida namoyon bo‘ladi” [2; 238-b.],- deb yozadi. Chindan ham analitik tafakkur “tarbiyalanuvchilarni... faol ishlashga majbur” qiladi, ularda to‘g‘ri va aniq xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shunday ko‘nikmaga ega bo‘lgan talabada tafakkurning mazmundorlik, mustaqillik, samaradorlik, kenglik, tezlik, chuqurlik kabi sifatleri barqarorlashadi.

#### Adabiyotlar:

1. A.Qodiriy O‘tkan kunlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Yo‘ldoshev Q. B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yoz.diss. – T.: 1996.
3. Qozoqboy Yo‘ldosh., Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.
4. 100 mumtoz faylasuf. Taqdirlar hikmatlar aforizmlar. To‘plovchi va tarjimon Jo‘raeva S. – T.: Yangi asr avlodi, 2017.
5. Курносов Ю.В. Азбука аналитики.– Москва, РУСАКИ, 2013.
6. Elektron manba: <https://articlekz.com/article/18272>

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada badiiy asarlar tahliliga yangicha yondashuv - analitik o‘qish va tahlillash samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается новый подход к анализу произведений искусства – эффективность аналитического чтения и анализа.

#### SUMMARY

The article discusses a new approach to the analysis of works of art - the effectiveness of analytical reading and analysis.